

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume 1, Issue 5

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-5>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Педагогика фанлари

XOLDAROVA Iroda Valijonovna

*Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

ALIJONOVA Malikaxon G‘ayratjon qizi

*Farg‘ona davlat universiteti
magistranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7966118>

SINFDAN TASHQARI ISHLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING AQLIY FAOLIYATI VA DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyatlari, o‘quvchilari ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun o‘qituvchi va tarbiyachilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda foydalanadigan metodlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: mashg‘ulot, motiv, intellektiv metod, sinfdan tashqari ish, fakultativ soat, diktant, bayon, insho, mushoira.

KHOLDAROVA Iroda Valizhonovna

*Fergana State University teacher
Doctor of Philosophy in Philology (PhD)*

ALIJONOVA Malikakhan Gayratjon kizi

*Fergana State University
master*

FORMING INTELLECTUAL ACTIVITY AND WORLD VIEW OF STUDENTS THROUGH ACTIVITIES OUTSIDE THE CLASSROOM

ANNOTATION

This article talks about the main features of extracurricular activities, methods used by teachers and educators in extracurricular and extracurricular activities to improve the quality of education of their students.

Key words: training, motivation, intellectual method, extracurricular work, optional hour, dictation, statement, essay, discussion.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ВНЕАУДИТОРНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

ХОЛДАРОВА Ирода Валижонова

Преподаватель Ферганского государственного университета

Доктор философии по филологии (PhD)

АЛИЖОНОВА Маликахан Гайратжон кизи

Ферганского государственного университета

магистрант

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается об основных особенностях внеклассной работы, методах, используемых учителями и воспитателями во внеклассной и внешкольной работе для повышения качества образования своих учеников.

Ключевые слова: обучение, мотивация, интеллектуальный метод, внеклассная работа, факультативный час, диктант, изложение, сочинение, дискуссия.

Komil insonni tarbiyalashda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy g'oyalarining asoslash, sharhlash hamda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishda kasbiy mahoratni oshirishga xizmat qiluvchi samarali shakl, metod va vositalarning aniqlanganligi, shuningdek, komil insonni tarbiyalashda tarbiyaviy ishlarning amalga oshirish texnologiyasining ishlab chiqilishi zarur.

Har bir sinfda ta'limni differensiyalashga kuchli e'tibor berilishi zarur, bu borada aksariyat birinchi sinf o'quvchilarining muvafaqqiyatli boshlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lmagan maktablarga alohida e'tibor berilishi lozim. Boshlang'ich ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta'lim jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta'minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo'lmagan, murakkab (ko'plik), turli xil matnlarni o'qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish, tushunib o'qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog'oz va kompyuter shakllari) kabi vazifalar qo'yilgan. O'qish tezligini nazorat qilishdan ko'ra tushunib o'qishga urg'u berish kuzatildi. O'qish savodxonligi funksional savodxonlikning integrativ komponenti sifatida anglatmoqda. Rossiyada bu davlat hujjatlari darajasida qayd etilgan.

Matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiy-ilmiy va ma'lumotnomalarni o'qishni o'rgatishda o'ziga xoslik ishlab chiqarilmoqda. Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarning mustaqil faoliyati asosida uyushtiriladi. Bu esa, bir tomondan, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlari doirasini, ikkinchi tomondan, o'qishga tavsiya qilinadigan asarlarning dastur mavzusiga mosligi va badiiy barkamolligini alohida inobatga olishni taqozo etadi. Shuningdek, sinfdan tashqari o'qish jarayonida nutq o'stirish ishlariga alohida e'tibor beriladi. Chunki unda qo'llaniladigan turli usullar: matnni ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish, tanlab o'qish, yod olish, asar mazmuni yuzasidan reja tuzish va shu asosda qayta hikoyalash, qisqartirib hikoyalash, shaxsini o'zgartirib hikoyalash, asar mavzusini aniqlash, qahramonlarning fe'l-avorini tavsiflash va hokazolar o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi (ertak, maqol, topishmoq) ni o'qib-o'rganish, badiiy asarni tahlil qilish orqali og'zaki nutqni o'stirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Yuqoridagilarning barchasida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi, o'qilgan asarni tushunishga o'rgatadi, ularning so'z boyligini oshirib, lug'atini boyitadi. Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli, o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, umuman, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari o'qish darslarida ayrim qiyin so'zlar tushintiriladi, o'quvchilar diqqati esda saqlab qolish lozim bo'lgan aniq, qulay nutq oborotlariga qaratiladi. Barcha qiyin so'zlarni tushuntirish imkoni bo'lmagani uchun bolalar tegishli bet tagida berilgan ayrim so'zlar izohini o'qishga o'rgatiladi.

Shu tariqa ularning lugʻat boyligi yangi soʻzlar bilan boyib boradi. Sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar alohida-alohida tadbirlar sanalsa-da, ammo ular oʻzaro bogʻliq, biri ikkinchisini toʻldiradigan tadbirlardir. Toʻgarak mashgʻulotlari va sinfdan tashqari ishlarning barcha turlaridan unumli foydalanilgan taqdirdagina, ona tili taʼlimining samaradorligi taʼminlanadi. Sinfdan tashqari ishlarda oʻquvchilarning aqlini oʻstiruvchi, fikrlashga va ijodga undovchi ish turlari, taʼlimiy oʻyinlarga keng oʻrin beriladi. Oʻquvchi oʻynab turib oʻylanadi, izlanadi, bilimni boyitadi.

Boshlangʻich sinfda taʼlim jarayonida oʻquvchilarning oʻqish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv oʻquvchilarni taʼlim jarayoniga qiziqtiradi, oʻquvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar oʻqish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Metodning maqsadi- guruhdan qisqa vaqt ichida koʻp miqdorda variantlarni olish, oʻquvchilar nimalarni bilishini aniqlash. Mashgʻulot davomida muammoni hal eta oladigan gʻoyalar taklif etilishi, umumiy tajriba yuzasidan fikr alamshish uchun zamin yaratilishi va oʻquvchilar istagini bildirishi mumkin.

- “Fikriy hujum” odatda ogʻzaki shaklda boʻlib oʻtadi oʻqituvchi savol beradi, oʻquvchilar esa munozaraga tushmasdan oʻz fikrini galma-gal bayon qilishadi, bunda hamma oʻz fikrini aytib boʻlishi kerak;

- gʻoyalarning hammasini barchaga namoyish qilib koʻrsatib qoʻyilmaguncha ularni muhokama qilmaslik nihoyatda muhim;

- jarayonning tartibi va maqsadini oʻquvchiga tushuntirib qoʻyish lozim;

- gʻoyalar roʻyxati kimdagi uzunroq boʻlsa oʻsha yaxshi hisoblanadi.

Oʻrta umumtaʼlim maktab oʻquvchilari taʼlim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun oʻqituvchi va tarbiyachilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlar imkoniyatidan keng ravishda foydalanadi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular maktab bilan hayot aloqasini mustahkamlaydi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish sanʼatkorlar, ishchilar, olimlar, dehqonlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Oʻquvchilar turli sohada ishlayotgan kishilar bilan tanishib, ular kabi vatanga, xalqqa xizmat qilish istagi paydo boʻladi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ixtiyoriy xarakterga ega. Bolalar bunday ishlarga oʻz xohishlari bilan ishtirok etadilar. Bir kishi bir necha tadbirlarda ham qatnashishi mumkin. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish toʻgʻri emas. Ular oʻz xohishlari va qobiliyatlari asosida chora tadbirda ishtirok etishlari mumkin. Tabiatshunoslik boʻyicha sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati va uning ijtimoiy foydali yoʻnalishi. Darslardan tashqari maktabda bolalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashgʻulotlar: ekskursiyalar toʻgarak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari oʻqishlar, qiziqishlar boʻyicha klublar va boshqa ishlar oʻtkaziladi.

Bu ishlar oʻquvchilarning oʻqituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uygʻotish va shuningdek, maktab dasturini kengaytirish hamda toʻldirish maqsadida amalga oshiriladigan chetdagi koʻpchilik faoliyat shakli boʻlgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi. Tabiatshunoslik boʻyicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni oʻrganishga qiziqish uygʻotish, oʻquvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bu vaqtni tashkillashtirish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki oʻquvchilarning xulq-atvoriga taʼsir koʻrsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish koʻnikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik boʻyicha yoʻlga qoʻyilgan sinfdan tashqari ishlar oʻquvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir [1, B.56].

Uzoq muddatli tajribalar qoʻyish, gerbariy va kolleksiya uchun material yigʻish, model, maket va boshqa koʻrgazmali qurollar tayyorlash, jonli tabiat burchagi va oʻquv-tajriba maydonchasidagi ishlar kabi sinfdan tashqari, ishlarning shakllari tabiatni oʻrganishni hayot bilan bogʻlash va oʻquvchilarni mehnatga tayyorgarlik uchun ahamiyatli boʻlgan amaliy oʻquv va koʻnikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan grammatik mavzular, til bilan bog‘liq tarixiy sanalar bilan bog‘liq holda grammatik o‘yinlar, topishmoqlar, topqirlar bellashuvi, she‘rxonlik, ifodali o‘qish, chiroyli yozuv konkursleri, uchrashuvlar, ulug‘ kishilar hayotiga sayohat, eng savodli diktant, bayon va insho tanlovi, mushoira, boshqotirma va rebuslar tuzish va yechish kabi mashg‘ulotlar ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning mazmunini tashkil etadi. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarga ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta‘limning texnik va axborat vositalarini jarayoniga joriy etish zarur. Boshlang‘ich sinflarda, sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirishda va mashg‘ulotlar materiallarini tanlashda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi.

1. O‘quvchining yoshi va individual xususiyatlari hisobga olinadi.

2. Bolalar hayotidagi ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratiladi.

3. Adabiyot, ona tilidan sinfdan tashqari ishlar uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki grammatik mavzularga bog‘liq she‘rlar, topishmoqlar, maqollar, ertaklar, sahna asarlari bolalar adabiyotidan tanlanadi.

4. Didaktikaning tavsiyalariga tayaniladi. A.G‘lomov ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni doimiy va mavsumiy tadbirlarga ajratadi. U doimiy tadbirlarga to‘garak mashg‘ulotlarini, qolganlarini vaqt-vaqti bilan o‘tkaziladigan tadbirlarga kiritadi.

To‘garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bo‘lib, unga to‘garak rahbari tayinlanadi. To‘garak rahbari yangi pedagogik tafakkur egasi, har tomonlama rivojlangan, o‘z ishining ustasi, keng ko‘lamdagi umummadaniy va kasb-kor ma‘lumotiga ega bo‘lishi kerak. No‘garak rahbari o‘quvchilarning doimiy tarkibi bilan ish ko‘radi. To‘garakka a‘zo bo‘lish ixtiyoriy, ammo uning mashg‘ulotlarida ishtirok etish majburiydir.

To‘garak a‘zolarini sinf o‘qituvchilari tavsiya etadi, o‘quvchilar ixtiyori, qiziqishi hisobga olinadi. Ona tili to‘garagining a‘zolari 12-15 o‘quvchidan oshmasligi lozim. Ular parallel sinflardan iborat bo‘lsa, mashg‘ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Agar maktabda parallel sinflar bo‘lmasa, to‘garak a‘zolari 1-2-sinf va 3-4-sinf o‘quvchilaridan iborat bo‘lishi ham mumkin. To‘garak biror nom bilan nomlanadi. Masalan, “Ona tilim – jonu dilim”, “Yosh tilchilar“, “Tilga e‘tabor – elga e‘tabor“, “Kimning xati chiroyli“, “Ifodali o‘qish“ kabi. To‘garakning maqsadi, vazifalari ona tili ta‘limi mazmuni va unga qo‘yiladigan talablardan, davlat tomonidan sinfdan va maktabdan tashqari iushlarga qo‘yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi. To‘garakning yillik ish rejasi to‘garakning maqsadi, vazifalaridan kelib chiqib to‘garak rahbari tomonidan tuziladi.

O‘quvchilar to‘garakning birinchi yig‘inida to‘garak maqsadi, vazifalari, yillik ish rejasi bilan tanishtiriladi. Ularning qiziqishlarini hisobga holda va taklifi bilan rejaga o‘zgartirishlar kiritiladi. Yillik reja maktab ma‘mutiyati tomonidan tasdiqlanadi. Mashg‘ulotlar 15 kunda bir marta o‘tkaziladi. To‘garak mashg‘ulotida ona tili darsida o‘rganilganlar takrorlanmaydi, o‘quvchilar o‘zlashtira olmagan mavzular tushuntirmaydi. Balki ona tili darslarida o‘rganilgan mavzular to‘ldiriladi va takomillashtiriladi. To‘garak mashg‘uloti ona tili dars tizilishi va qurilishi jihatidan farq qiladi, u muayyan qoliqlar asosida tashkil etilmaydi.

O‘quvchi to‘garak mashg‘ulotida darsda olgan bilimlariga tayangan holda hayotiy tajribalarini ishga soladi. Krossvordlar tuzish va yechish, rebuslar tuzish va yechish, insho tanlovi o‘tkazish, ma‘lum bir she‘riy asar yoki hikoyaning til xususiyatlari ustida ishlash, turli tadbirlarga material to‘plash va unga tayyorlanish, ta‘limiy vositalar yaratish, didaktik o‘yinlar to‘plash singari ishlar amalgam oshiriladi. To‘garak mashg‘ulotlari sayohat, uchrashuvlar shaklida o‘tishishi mumkin. Bu uning qiziqarli o‘tishini ta‘minlaydi. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan turiga uchrashuvlar, “O‘tkir zehnlilar musobaqasi“, “Mushoira kechasi“, “So‘z mulkiga sayohat“, “So‘rang, javob beramiz“, ko‘rik-tanlovlar, olimpiadalar, konferensiyalar, haftaliklar, ertalik, bellashuvlar kiradi. Lekin ularga ham to‘garak mashg‘ulotlarida tayyorgarlik ko‘riladi. To‘garak o‘z faoliyatini albom va devoriy gazetalarda yoritadi. Uchrashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unga ona tili darsliklarining mualliflari, mashhur tilshunoslar – olimlar, ilg‘or ona tili o‘quvchilari, yozuvchi va shoirlar taklif etilishi mumkin. “Yosh shoirlar mushoirasi“. “Yosh shoirlar mushoirasi“ yoki biror shoir ijodiga bag‘ishlangan mushoira mavzusi ham 1 -1,5 oy oldin e‘lon qilinadi.

Bellashadigan guruhlar o‘zlariga sardor belgilaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir guruh mustaqil tayyorgarlik ko‘radi. Mushoira odatda guruhlarining o‘zaro tabrigi bilan boshlanadi. Asosiy qism savol-javobdan iborat. Savollar o‘qituvchi yoki bellashayotgan guruhlar tomonidan tuzilishi mumkin. Hakamlar tabrik so‘zi va har bir savol-javobga tegishli ball qo‘yishadi hamda ular e‘lon qilib boriladi. “So‘zlar mulkiga sayohat“. Bu mashg‘ulot o‘quvchilarning so‘z zahirasini oshirishga qaratilgan tadbirdir. O‘quvchilar darsdan keyingi bo‘sh vaqtlarida so‘zlarning etimologiyasi, ularning leksik ma‘nosi olamiga sayohat qilishadi. Tilimizdagi so‘zlar juda katta xazina bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi qaysi uyadagi so‘zlar yuzasidan o‘quvchilarning tayyorgarlik ko‘rishlari lozimligini 10, 15 kun oldin ma‘lum qiladi va qanday manbalardan foydalanish lozimligini uqtiradi. “So‘rang, javob beramiz“ pochta ham “So‘zlar mulkiga sayohat“ning bir ko‘rinishi bo‘lib, unga javobni ham to‘garak a‘zolari tayyorlaydilar. “So‘rang, javob beramiz” kechasida o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Unga tayyorgarlik 1-1,5 oy oldin boshlanadi. O‘quvchilar maktabda tashkil etilgan qutiga o‘zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Muayyan vaqt o‘tgach, to‘garak a‘zolari savollarni yig‘ib, ularga javob tayyorlaydilar va kechani tashkil etadilar.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilar badiiy va ilmiy-ommabop kitoblarni mustaqil o‘qiy va tanlay oladigan, ularning mazmun-mohiyatini tushunadigan bo‘lishlariga erishish lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarning faqat kitoblarninggina emas, balki gazeta va jurnallar mutolaasiga ham qiziquvchan faol kitobxon bo‘lishlariga e‘tibor qaratiladi. Mavjud dasturlarda sinfdan tashqari o‘qish davomida o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bolalar yozuvchilarining asarlarini tanlay bilish, mustaqil o‘qigan kitoblarni, ulardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, asar syujetidagi muhim o‘rinlarni ajrata olish, sinfdan tashqari o‘qish kundaligi yuritish kabi ko‘nikmalarni egallash belgilab berilgan.

Sinfdan tashqari o‘qish, o‘z navbatida, qiziqarli va o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, o‘quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, kundalik hayotga faol munosabat uyg‘otadi. SHuning uchun ham bu xildagi darslarning qurilishi ham xilma-xil bo‘ladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilar o‘qigan kitoblari hisobga olinadi, yangi kitoblar tavsiya etiladi. Mustaqil mutolaa qilingan asarlar yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlarda asar mavzusi, janri, kompozitsion tuzilishi, syujet qurilishi, qahramonlar timsoliga oid tahlil elementlari o‘qituvchi savollari asosida o‘quvchilar ongiga singdirila boriladi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida ham kirish va yakuniy suhbatlar o‘tkaziladi.

Darslar rejasi butun o‘quv yili uchun oldindan tuzilishi lozim. Sinfdan tashqari o‘qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o‘rgatish, bilimni boyitish va o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishdir. O‘quvchilarga sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘qishlari zarur bo‘lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko‘rsatmalar beriladi. Maktab kutubxonasi bilan birgalikda kitob ko‘rgazmalari tashkil etiladi. Bu jarayonda kitob muqovasi, tituli, betlarini farqlay olish, asar muallifi, nomlarini, rassomlarni tanib olish, rasm asosida asarlarning nima haqida ekanini, mazmunini aniqlashga erishish muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarda muayyan mavzularda tavsiya etilgan asarlar ichidan kitob tanlash va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni o‘qigan asari mazmunini qisqacha so‘zlab berishga o‘rgatish lozim. O‘qish mavzusi sinfdan o‘qiladigan asarlar mavzusi bilan uyg‘unligiga, taolimtarbiya birligiga, mavsumiy, bosqichli va bolalar qiziqishiga rioya qilgan holda belgilanadi hamda asarlar tanlanadi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5/Gʻulom Maxmudovich Sayfullaev Buxoro davlat universiteti/Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda zamonaviy taʼlim texnologiyalaridan foydalanish.
2. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini oʻquv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan metodlar. Xalq taʼlimi, 2020. 3- maxsus son, 37-43 bet.
3. Kuznetsova Marina Ivanovna, "PIRLS 2021 xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida oʻqish savodxonligini shakllantirishning oʻziga xos xususiyatlari". 2021 y.
4. Masharipova U., Umarova M., Baynazarova D., Nabiyeva M. Ona tili. Metodik qoʻllanma – Toshkent, 2015. – 160 b.
5. Богуславская Н.Е., Капинос В.И., Купалова А.Ю. Методика развития речи. – Москва: Просвещение, 2005. – С. 128
6. <http://www.markaz.tdi.uz>
7. Зокирова, М. С. (2017). К вопросу о типах словосочетаний в разносистемных языках (на примере узбекского и таджикского языков). *The way of Science*, (2), 133.
8. Зокирова, С. М. (2016). Контрастивные исследования на современном этапе развития лингвистики. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 23-27.
9. Йўлдашева, Д., &Буважонова, М. (2019). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ПРАГМАТИК ЁНДАШУВ АСОСИДА МАТН ЎҚИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(12), 338-340.
10. ХОЛДАРОВА, И. В. (2021). ХАЛҚ ТОПИШМОҚЛАРИ ВА ГЕНЕРАТИВ ЛЕКСЕМАЛАР. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).
11. Nurbek, A. (2021, December). THE COMBINATION OF SOCIAL RELATIONSHIPS AND PSYCHOLOGICAL HEALTH. In *Conference Zone* (pp. 268-270).
12. Nurbek, A. (2021). Psixologik Salomatlik Va Uning Mohiyati. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 1(6), 666-669.
13. Nurbek, A. (2021). Management Psychology Leader and Its Characteristics. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали*, 1(1), 13-16.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz